

**XORIJIY DAVLATLAR AMALIYOTINING QIYOSIY TAHLILI
ASOSIDA O‘ZBEKISTONDA MEDIATSIYA INSTITUTINI HUQUQIY
MUSTAHKAMLASH VA XALQARO STANDARTLARIGA
MOSLASHTIRISH**

Akbar Jo‘rayev Abdushukur o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada nizolarni mediatsiya orqali hal qilishning nazariy-huquqiy asoslari, O‘zbekistondagi qonunchilik va amaliy tatbiqi, shuningdek, xorijiy davlatlardagi tajriba qiyosiy tahlil qilinadi. Qiyosiy tahlil orqali Singapur, Buyuk Britaniya, Germaniya va Avstriya kabi davlatlarning ilg‘or tajribalari o‘rganilgan. O‘zbekistonda mediatsiya institutini joriy etishda erishilgan natijalar, uchrayotgan muammolar va ularni hal etish yo‘llari aniqlangan. Maqolada shuningdek mediatsiyani qonunchilik, infratuzilma, kadrlar, jamiyat va xalqaro hamkorlik yo‘nalishlarida rivojlantirishga qaratilgan amaliy takliflar berilgan. Maqola doirasida amalga oshirilgan tadqiqot ishlari so‘nggi yillardagi ma‘lumotlarga asoslanildi va unda qiyosiy-huquqiy, tahliliy va tarixiy usullardan foydalanildi.

Kalit so‘zlar: mediatsiya, nizolarni hal qilish, xalqaro tajriba, O‘zbekiston qonunchiligi, mediator, suddan tashqari hal, Singapur konvensiyasi, jamoat mediatsiyasi, sud-mediatsiya, institusional infratuzilma, mediatsiya markazlari, kadrlar tayyorlash, huquqiy islohotlar, onlayn mediatsiya, mahalliy nizolar, xalqaro hamkorlik.

**ПРАВОВОЕ УКРЕПЛЕНИЕ И ГАРМОНИЗАЦИЯ С
МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ ИНСТИТУТА МЕДИАЦИИ
В УЗБЕКИСТАНЕ НА ОСНОВЕ СРАВНИТЕЛЬНОГО АНАЛИЗА
ПРАКТИКИ ЗАРУБЕЖНЫХ ГОСУДАРСТВ**

Джураев Акбар Абдушукур угли

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация: в данной статье проводится сравнительный анализ теоретико-правовых основ разрешения споров посредством медиации, законодательства и практического применения в Узбекистане, а также опыта зарубежных государств. Посредством сравнительного анализа изучен передовой опыт таких стран, как Сингапур, Великобритания, Германия и Австрия. Определены достигнутые результаты во внедрении института медиации в Узбекистане, возникающие проблемы и пути их решения. В статье также представлены практические предложения по развитию медиации в направлениях законодательства, инфраструктуры, кадров, общества и международного сотрудничества. Исследовательская работа, проведенная в рамках статьи, основана на данных последних лет и использует сравнительно-правовой, аналитический и исторический методы.

Ключевые слова: медиация, разрешение споров, международный опыт, законодательство Узбекистана, медиатор, внесудебное разрешение, Сингапурская конвенция, общественная медиация, судебная медиация, институциональная инфраструктура, центры медиации, подготовка кадров, правовые реформы, онлайн-медиация, местные споры, международное сотрудничество.

LEGAL STRENGTHENING AND HARMONIZATION WITH INTERNATIONAL STANDARDS OF THE MEDIATION INSTITUTE IN UZBEKISTAN BASED ON COMPARATIVE ANALYSIS OF FOREIGN STATES' PRACTICES

Akbar Jurayev Abdushukur ugli

Master's student of Tashkent State University of Law

Abstract: *this article provides a comparative analysis of the theoretical and legal foundations of dispute resolution through mediation, legislation and practical application in Uzbekistan, as well as the experience of foreign countries. Through comparative analysis, the advanced practices of countries such as Singapore, the United Kingdom, Germany, and Austria have been studied. The achievements in implementing the mediation institute in Uzbekistan, emerging problems, and ways to solve them have been identified. The article also presents practical proposals for developing mediation in the areas of legislation, infrastructure, personnel, society, and international cooperation. The research conducted within the framework of the article is based on recent years' data and employs comparative-legal, analytical, and historical methods.*

Keywords: *mediation, dispute resolution, international experience, Uzbekistan legislation, mediator, out-of-court resolution, Singapore Convention, community mediation, court-connected mediation, institutional infrastructure, mediation centers, personnel training, legal reforms, online mediation, local disputes, international cooperation.*

Zamonaviy dunyoda nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilishning muhimligi ortib bormoqda. Mediatsiya, ya’ni uchinchi betaraf shaxs yordamida tomonlarning kelishuviga yordam berish usuli, bugungi kunda ko‘plab davlatlarda keng qo‘llaniladi. Ushbu usul sud va arbitraj kabi an‘naviy nizolarni hal qilish usullariga nisbatan tez, arzon va samarali deb hisoblanadi. O‘zbekistonda mediatsiya 2018-yilda “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonun¹ qabul qilinganidan so‘ng rasman joriy etildi, ammo uning amaliy tatbiqi va aholi orasida xabardorlik darajasi hali ham muayyan muammolarga duch kelmoqda.

¹ O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni, 2018-yil 3-iyul, O‘RQ-482-son
<https://lex.uz/docs/-3805227>.

Ushbu maqolaning maqsadi – mediatsiyaning nazariy asoslarini o‘rganish, O‘zbekiston va xorijiy davlatlardagi qonunchilik va amaliyotni qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, O‘zbekistonda mediatsiyani rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Maqola qiyosiy-huquqiy, tahliliy va tarixiy usullarga asoslanadi va so‘nggi yillardagi ma’lumotlardan foydalanadi. Maqola quyidagi bo‘limlardan iborat:

1. Mediatsiyaning nazariy-huquqiy asoslari va rivojlanish bosqichlari
2. Xalqaro mediatsiya institutlari va tashkilotlari
3. Xorijiy davlatlar va O‘zbekistonda mediatsiya amaliyoti
4. O‘zbekistonda mediatsiyani rivojlantirish bo‘yicha takliflar
5. Xulosa

Globallashuv sharoitida xalqaro munosabatlar murakkablashib, davlatlar, tashkilotlar va turli sub’yektlar o‘rtasidagi munosabatlarda nizolar soni ortib bormoqda. Bunday sharoitda bahsli vaziyatlarni tinch yo‘l bilan hal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Mediatorlik – nizolarni hal etishning samarali va insonparvar usuli sifatida xalqaro amaliyotda keng qo‘llanilmoqda. Mediatorlik – bu mustaqil, xolis va neytral uchinchi tomon (mediator) ishtirokida nizoli tomonlar o‘rtasidagi muzokaralarni tashkil etish va yuritish orqali muammolarni o‘zaro kelishuv asosida hal qilish jarayonidir. Bu jarayon ixtiyoriylik, maxfiylik va taraflarning teng huquqliligi tamoyillariga asoslanadi.

Xalqaro munosabatlar doirasida mediatorlik alohida ahamiyatga ega. Chunki davlatlararo nizolar nafaqat bevosita ishtirokchilarga, balki butun mintaqa yoki hatto global tinchlik va xavfsizlikka ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli

BMT, YXHT, Afrika Ittifoqi kabi xalqaro tashkilotlar, maxsus mediatorlik markazlari va nodavlat tashkilotlar nizolarni hal etishda faol qatnashadilar.

Mediatsiya – bu nizolashayotgan taraflar o‘rtasida uchinchi tomon – mediator yordamida muloqot o‘rnatish orqali nizolarni hal qilishning muqobil usuli. Bu jarayon tomonlarga nizoli masalalar bo‘yicha yagona yechimga kelish imkonini beradi. Mediator qaror qabul qilmaydi, balki tomonlarga o‘zaro manfaatli yechim topishga ko‘maklashadi. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda mediatsiya nafaqat shaxslar va korporatsiyalar o‘rtasidagi nizolarni, balki davlatlar o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va hududiy nizolarni hal qilishda ham muhim rol o‘ynamoqda.

Bugungi dunyoda xalqaro aloqalarning murakkablashuvi va turli manfaatlar to‘qnashuvi mediatsiya mexanizmlariga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirdi. Natijada mediatsiya xalqaro tijorat, investisiya nizolari, siyosiy kelishmovchiliklar va hatto davlatlararo munosabatlarda samarali qo‘llanilmoqda. 2024-yildagi ma’lumotlarga ko‘ra, xalqaro tijorat nizolarining 70% dan ortig‘i mediatsiya orqali hal etilgan, bu esa an’anaviy sud jarayonlariga nisbatan xarajatlarni 60-80% gacha kamaytirish imkonini bergan².

Mediatsiyaning huquqiy asoslari va rivojlanish bosqichlari

Zamonaviy mediatsiya institutining huquqiy asoslari 1980-yillarda AQSHda shakllana boshladi va keyinchalik xalqaro darajada rivojlandi. Mediatsiyaning xalqaro huquqiy asoslarini quyidagi asosiy hujjatlar tashkil etadi:

1. BMTning 2018-yildagi "Xalqaro tijorat kelishuv tartibini tashkil etish to‘g‘risida"gi UNCITRAL Model Qonuni³;

² 2024 SIDRA International Dispute Resolution Survey <https://www.adristanbul.com/en/2024-sidra-international-dispute-resolution-survey/>.

³ UNCITRAL Model Law on International Commercial Mediation and International Settlement Agreements Resulting from Mediation, 2018 https://uncitral.un.org/en/texts/mediation/modellaw/commercial_conciliation/.
SJIF: 5.051

2. Yevropa Ittifoqining 2008-yildagi “Fuqarolik va tijorat ishlari bo’yicha mediatsiyaning ayrim jihatlari to’g’risida”gi 2008/52/EC Direktivasi⁴;

3. 2018-yilda qabul qilingan “Mediatsiya natijasida tuzilgan xalqaro kelishuvlar to’g’risida”gi Singapur Konvensiyasi⁵.

Mediatsiyaning rivojlanish bosqichlarini shartli ravishda uchta davrga bo’lish mumkin:

1. **Ilk bosqich (1980-1990):** AQSH va Buyuk Britaniyada mediatsiyaning huquqiy asoslarini shakllantirish;

2. **Globallashuv bosqichi (1990-2010):** Mediatsiyaning Yevropa, Osiyo va boshqa hududlarga tarqalishi;

3. **Institutsionallashuv bosqichi (2010 yildan hozirgacha):** Mediatsiyani tartibga soluvchi xalqaro me’yoriy hujjatlarning qabul qilinishi va xalqaro mediatsiya institutlarining rivojlanishi⁶.

Xalqaro mediatsiya instituti va tashkilotlari

Xalqaro mediatsiya instituti va tashkilotlari — bu mojarolarni tinch yo’l bilan hal etish, taraflar o’rtasidagi kelishmovchiliklarni muzokaralar orqali hal qilishni targ’ib qiladigan xalqaro darajadagi tashkilotlar va institutlardir. Ular turli davlatlar, kompaniyalar, tashkilotlar va shaxslar o’rtasida yuzaga kelgan nizolarni hal etishda vositachi sifatida ishtirok etadi.

⁴ Directive 2008/52/EC of the European Parliament and of the Council of 21 May 2008 on certain aspects of mediation in civil and commercial matters <https://eur-lex.europa.eu/eli/dir/2008/52/>.

⁵ United Nations Convention on International Settlement Agreements Resulting from Mediation (New York, 2018) (the "Singapore Convention on Mediation") https://uncitral.un.org/en/texts/mediation/conventions/international_settlement_agreements.

⁶ Коломыцева В.В. Этапы становления медиации в зарубежных странах // Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки. — Тамбов: Изд-во ТГУ им. Г.Р. Державина, 2012. SJIF: 5.051

Quyida xalqaro mediatsiya sohasida taniqli va muhim rol o'ynaydigan ayrim institut va tashkilotlar misollarini ko'rib chiqamiz.

Singapur xalqaro mediatsiya markazi (SIMC)

2014-yilda tashkil etilgan Singapur xalqaro mediatsiya markazi (SIMC) qisqa vaqt ichida xalqaro tijorat nizolarini hal etishda yetakchi institutlardan biriga aylandi⁷. Markazning muvaffaqiyati uning ishlash tamoyillari bilan bog'liq:

- Yuqori malakali xalqaro mediatorlar ro'yxati (70 dan ortiq davlatdan 100 dan ortiq mediatorlar);
- Har qanday yurisdiksiyadagi nizolarni ko'rib chiqish imkoniyati;
- SIMC-SIAC gibrid tartibi (arbitraj jarayonida mediatsiya qo'llash imkoniyati).

2024-yilgi statistika⁸ga ko'ra, SIMC ko'rib chiqqan nizolarning 80% dan ortig'i muvaffaqiyatli hal etilgan, o'rtacha nizoni hal qilish muddati 1-2 kunni tashkil etgan. Singapur xalqaro mediatsiya markazi ko'rgan ishlarning o'rtacha qiymati 30 million AQSH dollaridan oshadi, bu esa uning yirik xalqaro tijorat nizolarini hal qilishdagi salohiyatini ko'rsatadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (UN)

BMT tizimida mediatsiya siyosiy, etnik va davlatlararo nizolarni hal qilishning asosiy vositalaridan biri sifatida rivojlanmoqda. 2005 yilda tashkil

⁷ The Singapore International Mediation Centre <https://simc.com.sg/insights/singapore-international-mediation-centre/>.

⁸ 2024 SIDRA International Dispute Resolution Survey <https://www.adristanbul.com/en/2024-sidra-international-dispute-resolution-survey/>.

etilgan BMTning Tinchlik qurish komissiyasi⁹ nizolarni oldini olish va mediatsiya mexanizmlarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratmoqda.

2020-yilda BMT Bosh Kotibi tomonidan e'lon qilingan "Mediatsiya sohasidagi tashabbus" doirasida BMTning mediatsiya salohiyatini kengaytirish, ayollarning tinchlik jarayonlaridagi ishtirokini kuchaytirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish borasida muhim qadamlar qo'yildi¹⁰.

Yaqin tarixdagi BMT mediatsiyasi muvaffaqiyatli misollardan biri – Kolumbiyada FARC bilan tinchlik kelishuviga erishish. Bu jarayon BMT vositachilik va nazorat tizimi ostida 2016-yilda yakunlanib, 50 yillik fuqarolar urushiga chek qo'ydi¹¹.

Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (OSCE)

YXHT Yevropa mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash maqsadida mediatsiya mexanizmlarini faol qo'llab kelmoqda. Tashkilot doirasida nizolarning oldini olish markazi, milliy kamchiliklar bo'yicha Oliy komissar va boshqa mexanizmlar nizolarni erta aniqlash va ularni mediatsiya orqali hal qilish uchun mas'ul.

YXHT mediatsiyasining yaqqol namunasi – sharqiy Ukrainadagi mojaro doirasida 2014-2015-yillarda Minsk kelishuvlarini imzolash jarayonidagi ishtiroki. Bu nizo o'zining murakkabligi bilan ajralib tursa-da, YXHT vositachilik sa'y-

⁹ United Nations Peacebuilding Commission:

https://www.un.org/peacebuilding/sites/www.un.org.peacebuilding/files/documents/pbc_brochure_eng.pdf.

¹⁰ In 2020, the UN Secretary-General announced a mediation initiative focused on enhancing the UN's mediation capacity and support for conflict prevention and resolution. This initiative likely builds upon previous efforts to strengthen mediation within the UN system, as highlighted in a 2012 report to the General Assembly.

https://www.doj.gov.hk/en/publications/pdf/Mediation_Conference_2020_Publication_e.pdf.

¹¹ Colombia's Peace Process Through 2016 <https://crsreports.congress.gov/product/pdf/R/R42982/>.

harakatlari tomonlar o'rtasida muayyan darajada muloqot o'rnatishga imkon berdi¹².

Afrika Ittifoqi (AU)

Afrika qit'asidagi ko'plab siyosiy va etnik nizolar sharoitida Afrika Ittifoqi (AU) mediatsiyani qo'llashning o'ziga xos tajribasini shakllantirgan. 2002-yilda tashkil etilgan Tinchlik va xavfsizlik kengashi Afrika Ittifoqining asosiy mediatsiya organi hisoblanadi¹³.

Afrika Ittifoqi mediatsiya amaliyotining o'ziga xos jihati – an'anaviy madaniy qadriyatlarga tayanish va mahalliy jamoalarni jalb qilish. Afrika Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan 2020-yilgi "Mediatsiya va kelishuv jarayonlarida ayollar ishtiroki to'g'risida"gi qo'llanma gender masalalarini mediatsiya jarayonlariga integratsiyalash bo'yicha muhim vosita bo'ldi¹⁴.

Xorijiy mamlakatlar tajribalari va O'zbekiston

Ana endigi navbat xorijiy mamlakatlarning mediatsiya sohasidagi tajribalari va O'zbekistondagi amaliyotlar o'rtasidagi o'xshashliklar hamda farqlar, shuningdek, O'zbekiston bu sohada qanday yo'nalishda rivojlanib borayotgani, shuningdek, mediatsiya sohasidagi kamchiliklar va xorij tajribadan qanday ijobiy jihatlarni o'zlashtirish mumkinligi haqida gaplashishdan iborat bo'ladi.

Buyuk Britaniya tajribasi: Majburiy mediatsiya amaliyoti va sud xarajatlari bilan bog'liq tartiblar

Buyuk Britaniya mediatsiya amaliyotining o'ziga xos xususiyati – sudgacha mediatsiya jarayoniga yo'naltirish tizimining rivojlanganligi. Fuqarolik

¹² War, diplomacy, and more war: why did the Minsk agreements fail? *Int Polit* (2024) <https://link.springer.com/article/10.1057/s41311-024-00637/>.

¹³ The Peace and Security Council (PSC) <https://au.int/en/ThePeaceandSecurityCouncilandcrisisissituationsinAfrica/>

¹⁴ Women, Peace & Security (Engendering The Peace and Security Discourse). <https://www.peaceau.org/uploads/06-au-mediation-support-handbook-2014.pdf>.

ish yuritish qoidalariga ko'ra, 2024-yildan buyon muayyan toifadagi ishlar bo'yicha nizolashuvchi tomonlar sud muhokamasidan oldin majburiy tartibda mediatsiya jarayonida ishtirok etishlari shart¹⁵.

Buyuk Britaniya tajribasining yana bir muhim jihati – sud xarajatlari bilan bog'liq sanksiyalar tizimi. Agar tomonlardan biri mediatsiyada ishtirok etishdan asossiz ravishda bosh tortsa, sud ish yakunida unga qarshi tomonning sud xarajatlarini to'lash majburiyatini yuklashi mumkin. Bu tizim mediatsiyani rag'batlantirish va sud tizimini yukini kamaytirishga xizmat qiladi.

2025-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, Buyuk Britaniyada mediatsiya orqali hal etilgan nizolar soni o'tgan besh yil ichida 45% ga oshgan, bu esa majburiy mediatsiya amaliyotining samaradorligini ko'rsatadi¹⁶.

Germaniya tajribasi: Sudlar bilan integratsiyalashgan mediatsiya tizimi

Germaniyada 2012-yilda qabul qilingan "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonun mediatsiyani sud tizimi bilan integratsiyalashuvini ta'minladi. Germaniya modelining o'ziga xos xususiyati sud tizimi ichida mediatsiya xizmatlarini taqdim etishdir. Bunda sudyalor o'zlari ko'rayotgan ishlarni tegishli malakaga ega bo'lgan "sudya-mediator"larga yo'naltirishlari mumkin¹⁷.

Germaniyada mediatsiya natijasida erishilgan kelishuvlar qonuniy kuchga ega bo'ladi va sud qarorlariga tenglashtirilgan. Federal Adliya vazirligi

¹⁵ Compulsory Mediation in English Court Proceedings – Implications for Litigants and their Lawyers
<https://mediationblog.kluwerarbitration.com/2025/03/18/compulsory-mediation-in-english-court-proceedings-implications-for-litigants-and-their-lawyers/>.

¹⁶ Mediation Matters Newsletter – a look back at 2024 and a look forward to 2025
<https://www.independentmediators.co.uk/a-look-back-at-2024-and-a-look-forward-to-2025/>.

¹⁷ Mediation in EU countries | Germany https://e-justice.europa.eu/topics/taking-legal-action/mediation/mediation-eu-countries_en/.

ma'lumotlariga ko'ra, sud-mediatsiya dasturi joriy etilgandan so'ng, sudda ko'rib chiqiladigan ishlar soni 30% ga kamaygan¹⁸.

Germaniya tajribasining muhim jihati – mediatsiya xizmatlari uchun huquqiy yordam dasturlari orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi. Bu imkoniyati cheklangan fuqarolarga ham mediatsiya xizmatlaridan foydalanish imkonini beradi.

Avstriya tajribasi: Mediatorlik kasbi va uni tartibga soluvchi qonunlar

Avstriya mediatsiyani tartibga solish bo'yicha eng ilg'or mamlakatlardan biri hisoblanadi. 2003-yilda qabul qilingan "Fuqarolik ishlari bo'yicha mediatsiya to'g'risida"gi federal Qonun¹⁹ mediatorlik kasbini tartibga soluvchi mukammal me'yoriy asosni yaratdi.

Avstriya tajribasining asosiy xususiyatlari:

- 1) Mediatorlarning davlat reyestri va qat'iy malaka talablari (kamida 200-300 soat nazariy va 100-200 soat amaliy tayyorgarlik kurslari);
- 2) Majburiy sug'urta tartibi;
- 3) Mediatorlarning professional etika kodeksi;
- 4) Doimiy malaka oshirish tizimi (har 5 yilda kamida 50 soat).

Federal Adliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, Avstriyada 2,500 dan ortiq rasmiy ro'yxatga olingan mediatorlar faoliyat ko'rsatmoqda. Mediatsiya

¹⁸ Litigation & Dispute Resolution Laws and Regulations 2024 – Germany:

<https://www.globallegalinsights.com/practice-areas/litigation-and-dispute-resolution-laws-and-regulations/germany/>.

¹⁹ The Austrian Law on Mediation in Civil Cases 2003.

<https://www.arbiter.com.sg/pdf/laws/AustrianMediationAct2003.pdf>.

jarayonidagi kelishuvlarning ijro etilish darajasi 60% dan yuqori, bu esa jarayon samaradorligini tasdiqlaydi²⁰.

O‘zbekiston tajribasi

O‘zbekistonda mediatsiya instituti 2018-yil 3-iyulda qabul qilingan "Mediatsiya to‘g‘risida"gi Qonun bilan rasmiy joriy etildi. Qonun mediatsiyani qo‘llash sohalari, mediatorlarga qo‘yiladigan talablar, mediatsiya jarayonini tashkil etish va mediatsiya kelishuvining huquqiy oqibatlarini belgilaydi.

Qonunning asosiy qoidalari:

- Mediatsiyani fuqarolik huquqiy munosabatlardan, shu jumladan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish munosabati bilan kelib chiqadigan nizolarga, shuningdek yakka mehnat nizolariga va oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal qilishda qo‘llash imkoniyati;
- Mediatorlarning professional va noprofessional faoliyati tartibi;
- Mediatsiya jarayonining maxfiylik, ixtiyoriylik, taraflarning hamkorligi va teng huquqliligi, mediatorning mustaqilligi va xolisligi prinsiplari asosida amalga oshirilishi;
- Mediativ kelishuvning ijro etilishi kafolatlari va imkoniyatlari.

O‘zbekistonda birinchi mediatsiya markazi – Toshkent mediatsiya markazi 2019 yilda ochildi²¹. Bugungi kunda mamlakat bo‘ylab 30 dan ortiq mediatsiya markazlari va 1500 dan ortiq sertifikatlangan mediatorlar faoliyat yuritmoqda. Toshkent Mediatsiya Markazi o‘z faoliyatining dastlabki ikki yilida 500 dan ortiq

²⁰ Comparative Study of the legal and institutional frameworks and best practices on commercial mediation with recommendations for the Republic of Serbia Countries and Regions analysed: Austria, Greece, Italy, Singapore, the Netherlands, Turkey, Western Balkans (Croatia, Slovenia, Montenegro, Macedonia and Bosnia and Herzegovina) https://adrccenter.com/wp-content/uploads/2022/03/ENG-Study-on-Commercial-Mediation-in-Serbia_Final1-1.pdf.

²¹ O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining buyrug‘i. Mediatorlarni tayyorlash dasturini tasdiqlash haqida. 2019-yil 31-yanvar. <https://lex.uz/docs/-4185961>.

nizolarni ko‘rib chiqqan, ularning 70% mediatsiya orqali muvaffaqiyatli hal etilgan. Markaz o‘z faoliyati davomida mediatorlarni tayyorlash, malakasini oshirish va targ‘ibot ishlarini amalga oshirmoqda. Viloyatlarda ham mediatsiya markazlari faoliyati rivojlanmoqda. 2021-yilda Samarqand va Farg‘ona viloyatlarida ochilgan mediatsiya markazlari mahalliy darajada nizolarni hal qilishda faol ishtirok etmoqda. Xususan, Samarqand viloyati mediatsiya markazi tomonidan 2022-yilda 150 dan ortiq oilaviy nizolar ko‘rib chiqilib, ularning 80% tinch yo‘l bilan hal etilgan.

O‘zbekistonda mediatsiya institutini rivojlantirishda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik muhim rol o‘ynamoqda. 2019-2022-yillarda USAID tomonidan moliyalashtirilgan "O‘zbekistonda yuridik islohotlar" dasturi doirasida 500 dan ortiq mediatorlar tayyorlandi va qonunchilik takomillashtirildi.

BMT Taraqqiyot dasturi (PROON) bilan hamkorlikda 2021-2023-yillarda "Hamma uchun adolat" loyihasi amalga oshirilib, jamoat mediatsiyasi mexanizmlari joriy etildi. Loyiha doirasida mahalla darajasida 300 dan ortiq noprofessional mediatorlar tayyorlandi, mahalliy nizolarni hal qilish bo‘yicha qo‘llanmalar ishlab chiqildi.

2022-yilda YXHT bilan hamkorlikda "Mediatsiya madaniyatini rivojlantirish" loyihasi boshlandi, uning doirasida mediatsiya sohasida xorijiy ekspertlar jalb qilinib, treninglar o‘tkazilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda mediatsiya instituti qonunchilik darajasida mustahkamlangan bo‘lsa-da, amaliyotda keng qo‘llanilishi uchun hali ko‘p ish qilish zarur. Xalqaro tajribani o‘rganish va mahalliy sharoitlarga moslashtirish orqali mediatsiya tizimini yanada rivojlantirish mumkin. Bu esa

fuqarolar huquqlarini himoya qilish, sud tizimining yukini kamaytirish va nizolarni hal qilishning madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Mediatsiya instituti hozirgi zamonaviy munosabatlarda nizolarni hal qilishning muhim va samarali mexanizmi sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, mediatsiya turli madaniyatlarda va huquqiy tizimlarda samarali ishlashi mumkin bo'lgan universal mexanizm hisoblanadi. Singapur, Buyuk Britaniya, Germaniya va Avstriya kabi mamlakatlar tajribasi mediatsiya o'z samaradorligini ko'rsatgan institut ekanligini tasdiqlaydi.

Xalqaro tashkilotlar, jumladan BMT, YXHT va Afrika Ittifoqi kabi tashkilotlar mediatsiyani xalqaro nizolarni hal qilishda tobora ko'proq qo'llamoqda. Bu jarayonlar nafaqat mahalliy miqyosdagi shaxslararo va tijorat nizolarini, balki davlatlararo va siyosiy mojarolarni hal qilishda ham samarali ekanligini namoyish etmoqda.

O'zbekistonda mediatsiya institutining joriy etilishi va rivojlanishi muhim qadam bo'ldi. 2018-yilda "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi, tegishli infratuzilmaning shakllanishi va xalqaro hamkorlik doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar mediatsiya madaniyatining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq, bu yo'nalishda hali oldinda katta ishlar turibdi.

Xalqaro tajriba va milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda, fikrimcha, O'zbekistonda mediatsiya institutini samarali rivojlantirish uchun quyidagi 5 ta kompleks yondashuv talab etiladi (takliflarim sifatida har birini bir-bir tushuntirib ketaman:

Birinchidan, mediatsiya institutini qonunchilik darajasida takomillashtirish lozim.

Singapur Konvensiyasiga qo‘shilish zarurati bugungi kunda O‘zbekiston uchun muhim ahamiyat kasb etadi. “Mediatsiya natijasida tuzilgan xalqaro kelishuvlar to‘g‘risida”gi Singapur konvensiyasiga qo‘shilish orqali O‘zbekistonda erishilgan mediatsiya kelishuvlarining xalqaro miqyosda tan olinishi ta‘minlanadi. Bu esa xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlarni kuchaytiradi va investisiya muhitini yaxshilaydi. Masalan, o‘zbek kompaniyalari bilan xorijiy hamkorlar o‘rtasidagi nizolar bo‘yicha tuzilgan mediatsiya kelishuvlari 46 ta Konvensiya a‘zo davlatlarida bevosita ijro etilishi mumkin bo‘ladi.

Mediatorlarning professional faoliyatini tartibga solish masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Hozirgi qonunchilik mediatorlik faoliyatining umumiy tartibini belgilasa-da, sohada standartlashtirish masalalari yetarli darajada tartibga solinmagan. Avstriya tajribasidan foydalanib, majburiy sug‘urta tizimi, doimiy malaka oshirish talablari (kamida har 2 yilda 20 soat) va aniq etika kodeksini joriy etish lozim. Bu mediatsiya xizmatlari sifatini oshirish va jarayon ishtirokchilarining huquqlarini kafolatlash uchun muhim asos bo‘ladi.

Jamoat mediatsiyasi mexanizmlarini qonunchilik darajasida mustahkamlash zarurati shundan kelib chiqadiki, O‘zbekiston jamiyatida nizolarni noformal ravishda hal qilishning an‘anaviy mexanizmlari (mahalla, oqsoqollar kengashi) mavjud. Qonunchilikda noprofessional mediatsiyani rasmiylashtirish bu mexanizmlarni zamonaviy mediatsiya qoidalari bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Afrika Ittifoqi tajribasi ko‘rsatganidek, an‘anaviy va zamonaviy tinchlik o‘rnatish mexanizmlarining integratsiyasi – nizolarni samarali hal qilishning kalitidir.

Mediatsiya qo'llaniladigan nizolar doirasini kengaytirishda ma'muriy va davlat organlari bilan bog'liq nizolarni ham qamrab olish muhim. O'zbekistonda hozirda mediatsiya asosan xususiy huquq sohasidagi nizolarga qo'llaniladi. Germaniya va Niderlandiya tajribasi ko'rsatadiki, davlat organlari bilan bog'liq nizolarni mediatsiya orqali hal qilish ma'muriy sudlar yukini 30-40% gacha kamaytirish imkonini beradi. Bunday yondashuv byurokratik to'siqlarni kamaytirish va davlat xizmatlari sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, mediatsiyaning institusional infratuzilmasini rivojlantirish pirovard maqsad bo'lmog'i lozim.

Mavjud mediatsiya markazlari faoliyatini takomillashtirish faqat miqdoriy ko'rsatkichlar bilan emas, balki xizmatlar sifatini oshirish orqali amalga oshirilishi zarur. Bugungi kunda O'zbekistonda 30 dan ortiq mediatsiya markazlari mavjud bo'lsa-da, ularning ko'pchiligi yetarli moliyaviy va texnik bazaga ega emas. Mediatsiya markazlarining infratuzilmasini xalqaro standartlarga moslashtirish (maxfiylikni ta'minlovchi alohida xonalar, videokonferensiya aloqasi uchun texnik imkoniyatlar, elektron hujjat almashish tizimlari) nizolarni hal qilish samaradorligini oshiradi.

Sud tizimi bilan hamkorlikni kuchaytirish mediatsiya rivojlanishining muhim sharti. O'zbekistonda ayrim toifadagi ishlar bo'yicha sudgacha majburiy mediatsiya joriy etilgan bo'lsa-da, sudya tomonidan bevosita mediatsiyaga yo'naltirish mexanizmi to'liq ishlab chiqilmagan. Germaniya modelidan foydalanib, sud tizimi ichida "sudya-mediator" institutini joriy etish va nizolarni sud muhokamasining dastlabki bosqichida mediatsiyaga yo'naltirish mexanizmini kengaytirish sud tizimi yukini kamaytirish imkonini beradi.

Xalqaro tijorat mediatsiyasi bo'yicha ixtisoslashgan markaz tashkil etish O'zbekistonda investision muhit jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Markaziy Osiyoda bunday ixtisoslashgan xalqaro markazning mavjud emasligi O'zbekistonning mintaqada xalqaro tijorat nizolarini hal qilish markazi sifatida pozitsiyasini mustahkamlash imkonini beradi. Singapur xalqaro mediatsiya markazi tajribasidan foydalanib, xalqaro me'yoriy baza (Singapur konvensiyasi) asosida ishlaydigan, yuqori malakali xalqaro mediatorlarni jalb qiladigan markaz yaratish global iqtisodiy aloqalarda O'zbekistonning o'rnini mustahkamlashga yordam beradi.

Onlayn mediatsiya mexanizmlarini rivojlantirish COVID-19 pandemiyasi sharoitida o'z zaruratini ko'rsatdi. Buyuk Britaniya tajribasi ko'rsatadiki, onlayn mediatsiya tizimlarini joriy etish orqali nizolarni hal qilish xarajatlari 60% gacha kamayadi, vaqt sarfi esa 45% gacha qisqaradi. O'zbekistonda ham maxsus dasturiy ta'minot va platformalar yaratish, xavfsizlik protokollarini ishlab chiqish orqali masofaviy mediatsiya xizmatlarini rivojlantirish uzoq hududlarda yashovchi fuqarolarga ham mediatsiya xizmatlaridan foydalanish imkonini yaratadi.

Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish mediatsiya infratuzilmasini rivojlantirishning moliyaviy asosini kuchaytiradi. Xususiy kapitalni jalb qilish orqali yangi mediatsiya markazlarini ochish, mavjud markazlarni modernizatsiya qilish mumkin. Masalan, davlat mediatsiya markazlari uchun bino va infratuzilma taqdim etsa, xususiy investorlar esa jihozlash va texnik ta'minotni o'z zimmasiga olishi mumkin. Bu mexanizm Singapur, Hindiston va BAAda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

Uchinchidan, mamlakatda kadrlar salohiyatini oshirish darkor.

Mediatorlar tayyorlash tizimini takomillashtirish zarurati shundan kelib chiqadiki, hozirda O‘zbekistonda mediatorlar tayyorlash dasturlari xalqaro standartlarga to‘liq javob bermaydi. Mavjud dasturlar 60 soatlik kursni nazarda tutsa, xalqaro standartlar 120-200 soatlik nazariy va amaliy tayyorgarlikni talab qiladi. Avstriya tajribasidan foydalanib, mediatorlar tayyorlash dasturini kamida 120 soatga kengaytirish, nazariy ta’lim bilan birga superviziya ostida amaliyot komponentini (kamida 10 ta mediatsiya jarayonida ishtirok etish) majburiy qilish zarur. Bu mediatorlar malakasini oshirish va xizmatlar sifatini yaxshilashga olib keladi.

Turli soha mutaxassislarini mediatsiyaga jalb qilish mediatsiya xizmatlari diversifikatsiyasini ta’minlaydi. Faqat yuristlarga emas, balki psixologlar, iqtisodchilar, muhandislar, shifokorlar kabi soha mutaxassislarini mediatorlik faoliyatiga tayyorlash maxsus bilimlar talab qilinadigan sohalardagi nizolarni samarali hal qilish imkonini beradi. Germaniyada sohaviy mediatsiya (tibbiyot, qurilish, IT sohasi) amaliyoti ko‘rsatadiki, bu yondashuv nizolarni hal qilish samaradorligini 75% gacha oshiradi.

Mediatorlar uchun etika va professional standartlarni takomillashtirishda xalqaro me’yorlarga tayanish muhim. O‘zbekistonda mediatorlar uchun umumiy etika qoidalari mavjud bo‘lsa-da, ular yetarli darajada batafsil emas. Yevropa mediatorlar etika kodeksi tajribasidan foydalanib, manfaatlar to‘qnashuvi, maxfiylik, taraflarga ta’sir qilishni cheklash kabi masalalarni aniq tartibga soluvchi qoidalar ishlab chiqish zarur. Bu mediatsiyaning betarafligi va shaffofligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Xalqaro mediatsiya markazlari bilan hamkorlikni kuchaytirish – global tajriba va bilimlardan foydalanishning kaliti. Singapur Xalqaro Mediatsiya

Markazi, London Xalqaro Arbitraj Sudi mediatsiya xizmati, Vena Xalqaro Arbitraj Markazi kabi yetakchi institutlar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish, tajriba almashish dasturlarini yo'lga qo'yish va qo'shma loyihalarni amalga oshirish o'zbek mediatorlarining kasbiy o'sishiga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, jamiyatda mediatsiya madaniyatini shakllantirish kerak.

Mediatsiya afzalliklarini keng targ'ib qilishning zarurati shundaki, hozirda O'zbekiston aholisining aksariyati mediatsiya imkoniyatlari haqida yetarli ma'lumotga ega emas. Ijtimoiy tarmoqlar, televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali muntazam ravishda mediatsiyaning afzalliklari (vaqt va mablag' tejallishi, maxfiylik, munosabatlarni saqlab qolish) haqida ma'lumotlarni tarqatish zarur. BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi tajribasi ko'rsatadiki, targ'ibot kampaniyalari natijasida mediatsiya xizmatlaridan foydalanish darajasi 40% ga oshadi.

Ta'lim muassasalarida nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish ko'nikmalarini o'rgatish yosh avlodda mediatsiya madaniyatini shakllantirishning asosidir. Maktab, kollej va oliy ta'lim muassasalarida nizolarni konstruktiv hal qilish bo'yicha maxsus kurslar va amaliy mashg'ulotlarni joriy etish orqali yoshlarda muzokaralar olib borish, faol tinglash va nizolarni ijobiy hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Germaniya, Norvegiya kabi mamlakatlarda bu yondashuv yoshlar o'rtasida nizolarni 60% ga kamaytirgan.

Muvaffaqiyatli mediatsiya holatlarini ommaviy axborot vositalarida yoritish bilan jamiyatda ishonch hosil qilish mumkin. Mediatsiya orqali muvaffaqiyatli hal etilgan nizolar haqidagi ijobiy misollar (tomonlarning shaxsiy ma'lumotlarini oshkor qilmagan holda) mediatsiyaning samaradorligini ko'rsatadi.

Masalan, Yevropa tajribasi ko'rsatadiki, ijobiy natijalar haqidagi hikoyalar mediatsiya xizmatlariga murojaatlar sonini 35-45% ga oshiradi.

Mahalla va boshqa fuqarolik institutlari darajasida mediatsiya mexanizmlarini qo'llashni rag'batlantirish mahalliy darajada nizolarni hal qilish samaradorligini oshiradi. Mahalla faollari, maslahatchilar va hokazolar uchun mediatsiya asoslari bo'yicha qisqa o'quv kurslarini tashkil etish, jamoat mediatsiyasi texnikalarini o'rgatish orqali mahalliy darajada nizolarni erta aniqlash va hal qilish tizimini yaratish mumkin. BMT Taraqqiyot dasturining "Hamma uchun adolat" loyihasi natijalari ko'rsatadiki, bu yondashuv mahalliy darajadagi nizolarni 55% gacha kamaytirish imkonini beradi.

Va eng so'ngisi, xalqaro hamkorlikni imkon qadar yanada kengaytirish zarur.

Xalqaro tashkilotlar bilan loyihalarni rivojlantirish milliy mediatsiya tizimini takomillashtirishning muhim manbai hisoblanadi. Jumladan, USAID, BMT Taraqqiyot dasturi, YXHT, Yevropa Ittifoqi kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda mediatsiyani rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni davom ettirish, qonunchilik tahlili, kadrlar tayyorlash, targ'ibot ishlarini amalga oshirish muhim. Bu hamkorlik orqali nafaqat moliyaviy resurslar, balki xalqaro ekspertlar tajribasidan ham foydalanish imkoniyati yuzaga keladi.

Xorijiy mediatsiya markazlari va ekspertlar bilan tajriba almashish orqali xalqaro eng yaxshi amaliyotlarni o'zlashtirish mumkin. Yetakchi xorijiy mediatsiya markazlari (Singapur, London, Vena, Parij) bilan hamkorlik memorandumlarini imzolash, qo'shma konferensiyalar o'tkazish, ekspertlar almashinuvi dasturlarini yo'lga qo'yish orqali global mediatsiya tajribasini

o'zlashtirish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu hamkorlik O'zbekiston mediatsiya tizimining xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashga yordam beradi.

O'zbek mediatorlari uchun xalqaro trening va stajirovka imkoniyatlarini yaratish ularning professional rivojlanishiga xizmat qiladi. Yetakchi xalqaro mediatsiya institutlarida malaka oshirish dasturlarini tashkil etish, xalqaro sertifikatlash imkoniyatlarini yaratish (masalan, Xalqaro Mediatorlar Instituti sertifikat) orqali o'zbek mediatorlarining kasbiy mahoratini oshirish mumkin. Bu yondashuv yuqori malakali mediatorlar korpusini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mintaqaviy darajada mediatsiya mexanizmlarini rivojlantirish bo'yicha hamkorlikni kuchaytirish Markaziy Osiyo mintaqasida mediatsiya markaziga aylanish imkonini beradi. Qo'shni davlatlar (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston) bilan qo'shma treninglar, konferensiyalar, tajriba almashish dasturlarini tashkil etish, mintaqaviy mediatsiya forumini tashkil etish orqali O'zbekiston mintaqada mediatsiya sohasida yetakchi mamlakatga aylanishi mumkin. Bu esa o'z navbatida mintaqaviy integratsiya jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan kompleks choralar O'zbekistonda mediatsiya institutini tizimli ravishda rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish va jamiyatda nizolarni konstruktiv hal qilish madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Tajriba ko'rsatadiki, bu choralarning izchil amalga oshirilishi natijasida sud tizimi yukini kamaytirish, nizolarni hal qilish xarajatlarini qisqartirish va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, mediatsiya instituti O'zbekistonda nizolarni hal qilishning samarali va istiqbolli mexanizmi sifatida tan olinmoqda. Xalqaro tajriba

va milliy xususiyatlarni uyg'unlashtirgan holda mediatsiya tizimini rivojlantirish orqali sud tizimining samaradorligini oshirish, aholi uchun adolatli yechimlarga erishish imkoniyatlarini kengaytirish va umuman jamiyatda tinchlik madaniyatini shakllantirishga erishish mumkin. Bu esa o'z navbatida huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish, iqtisodiy o'sish uchun investision muhitni yaxshilash kabi strategik maqsadlarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni, 2018 yil 3 iyul, O'RQ-482-son <https://lex.uz/docs/-3805227>.
2. 2024 SIDRA International Dispute Resolution Survey <https://www.adristanbul.com/en/2024-sidra-international-dispute-resolution-survey/>.
3. UNCITRAL Model Law on International Commercial Mediation and International Settlement Agreements Resulting from Mediation, 2018 https://uncitral.un.org/en/texts/mediation/modellaw/commercial_conciliation/.
4. Directive 2008/52/EC of the European Parliament and of the Council of 21 May 2008 on certain aspects of mediation in civil and commercial matters <https://eur-lex.europa.eu/eli/dir/2008/52/>.
5. United Nations Convention on International Settlement Agreements Resulting from Mediation (New York, 2018) (the "Singapore Convention on Mediation") https://uncitral.un.org/en/texts/mediation/conventions/international_settlement_agreements.

6. Коломывцева В.В. Этапы становления медиации в зарубежных странах // Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки. – Тамбов: Изд-во ТГУ им. Г.Р. Державина, 2012.

7. The Singapore International Mediation Centre
<https://simc.com.sg/insights/singapore-international-mediation-centre/>.

8. 2024 SIDRA International Dispute Resolution Survey
<https://www.adristanbul.com/en/2024-sidra-international-dispute-resolution-survey/>.

9. United Nations Peacebuilding Commission:
https://www.un.org/peacebuilding/sites/www.un.org.peacebuilding/files/document/s/pbc_brochure_eng.pdf.

10. In 2020, the UN Secretary-General announced a mediation initiative focused on enhancing the UN's mediation capacity and support for conflict prevention and resolution. This initiative likely builds upon previous efforts to strengthen mediation within the UN system, as highlighted in a 2012 report to the General Assembly.
https://www.doj.gov.hk/en/publications/pdf/Mediation_Conference_2020_Publication_e.pdf.

11. Colombia's Peace Process Through 2016
<https://crsreports.congress.gov/product/pdf/R/R42982/>.

12. War, diplomacy, and more war: why did the Minsk agreements fail? Int Polit (2024) <https://link.springer.com/article/10.1057/s41311-024-00637/>.

13. The Peace and Security Council (PSC)
<https://au.int/en/ThePeaceandSecurityCouncilandcrisisituationsinAfrica/>.

14. Women, Peace & Security (Engendering The Peace and Security Discourse). <https://www.peaceau.org/uploads/06-au-mediation-support-handbook-2014.pdf>.
15. Compulsory Mediation in English Court Proceedings – Implications for Litigants and their Lawyers:
<https://mediationblog.kluwerarbitration.com/2025/03/18/compulsory-mediation-in-english-court-proceedings-implications-for-litigants-and-their-lawyers/>.
16. Mediation Matters Newsletter – a look back at 2024 and a look forward to 2025 <https://www.independentmediators.co.uk/a-look-back-at-2024-and-a-look-forward-to-2025/>.
17. Mediation in EU countries | Germany https://e-justice.europa.eu/topics/taking-legal-action/mediation/mediation-eu-countries_en/.
18. Litigation & Dispute Resolution Laws and Regulations 2024 – Germany: <https://www.globallegalinsights.com/practice-areas/litigation-and-dispute-resolution-laws-and-regulations/germany/>.
19. The Austrian Law on Mediation in Civil Cases 2003. <https://www.arbiter.com.sg/pdf/laws/AustrianMediationAct2003.pdf>.
20. Comparative Study of the legal and institutional frameworks and best practices on commercial mediation with recommendations for the Republic of Serbia Countries and Regions analysed: Austria, Greece, Italy, Singapore, the Netherlands, Turkey, Western Balkans (Croatia, Slovenia, Montenegro, Macedonia and Bosnia and Herzegovina) https://adrcenter.com/wp-content/uploads/2022/03/ENG-Study-on-Commercial-Mediation-in-Serbia_Final1-1.pdf.

21. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining buyrug‘i. Mediatorlarni tayyorlash dasturini tasdiqlash haqida. 2019-yil 31-yanvar. <https://lex.uz/docs/-4185961>.